
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

CONTENTS

LINGUISTICS		**4**
Sulaymanova N.J.	A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek	5
Allayarova M.T.	Linguocognitive and linguocultural features of figurative toponyms in Uzbek and English	13
Tashpulatova Sh.Z.	Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek	20
Rakhimova U.S.	The poetics of the mother image in 19th-century English novels: the interpretation of biological and surrogative motherhood	27
Umarova Sh.I.	Combinatorial properties of collocations	33
Suvanova Kh.B.	Linguocognitive and pragmatic features of female inner speech: a comparative analysis of V. Woolf's "Mrs Dalloway" and O. Hoshimov's "Ikki eshik orasi"	41
Pazilova N.M., Nancy M. Ackles	National-cultural code and the linguistic construction of social identity in Jura Fozil's "The garden": A Linguopragmatic study	48
Saloxiddinov M.Sh.	Article title: cognitive-axiological features and linguocultural representation of the family concept in Uzbek and English	61
Kosheva D.Kh.	Linguocultural analysis of oral discourse: key parameters and methodological cautions	72
Jo'rayeva N.S.	Semantic gradation and stylistic differentiation of verbs expressing smiling in English and Uzbek	81
Abdulkhaeva M.M.	The role of paragraphemic devices in the theoretical and stylistic analysis of written discourse	87
Pazilova N.M., Makhmudova M.N.	Abdurauf Fitrat's term-formation principles and the semantic-functional adaptation of artificial intelligence terms into Uzbek	93
Pazilova N.M., Imomova Z.M.	Speech strategies and gender roles in Abdurauf Fitrat's family discourse: a linguopragmatic analysis of "Oila"	100
Shakurova N.Kh.	National-cultural and cognitive features of the concept "Mother" in English and Uzbek	107
Abdujalilov M.I.	The linguistic nature of lexical units denoting attributes in Uzbek and Russian	117
Chulliyev N.A.	The theoretical foundations of constructing and expressing collective knowledge in political discourse	128
Song D.	Multilingual guided interpretation mechanisms for foreign tourists in living museums: A case study of the Konigil Tourism Village in Samarkand	138

Linguocognitive and pragmatic features of female inner speech: a comparative analysis of V. Woolf's "Mrs Dalloway" and O. Hoshimov's "Ikki eshik orasi"

Suvanova Khayriniso Bakhriddin kizi
uzoqovaxayriniso95@gmail.com
Teacher, Department of English Language Theory and Methodology,
Jizzakh State Pedagogical University

Annotation *The article examines the linguocognitive and pragmatic features of female discourse in English and Uzbek fiction based on Virginia Woolf's "Mrs Dalloway" and O'tkir Hoshimov's "Ikki eshik orasi" ("Between Two Doors"). Female discourse is treated as gender-marked verbal activity, and its conceptual foundations, metaphorical models and communicative strategies are analysed. The study draws on cognitive linguistics, pragmalinguistics and gender linguistics, applying conceptual analysis, speech act theory, politeness theory and the comparative-typological method. The results show that in Woolf's novel female discourse is realised mainly through interior monologue, where the concepts TIME, MEMORY and SOLITUDE are central. In Hoshimov's novel the female voice emerges within a polyphonic narrative dominated by the concepts PATIENCE, FAMILY and FATE and by indirect strategies based on blessings, prayer formulas and euphemisms. In both texts female speech becomes a means of self-reflection and of voicing the conflict between identity and social roles. The findings may be used in teaching comparative linguistics, text analysis and translation studies.*

Keywords *Female discourse, linguocognitive analysis, pragmatics, concept, stream of consciousness, speech strategy*

Ayol ichki nutqining lingvokognitiv va pragmatik xususiyatlari: V. Vulfning «Mrs Dalloway» va O'. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanlari qiyosiy tahlili

Suvanova Xayriniso Bahriddin qizi
uzoqovaxayriniso95@gmail.com
Ingliz tili nazariyasi va metodikasi o'qituvchisi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek badiiy nasrida ayol diskursining lingvokognitiv va pragmatik xususiyatlari Virjiniya Vulfning «Mrs Dalloway» hamda O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanlari misolida qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqotda ayol diskursi gender belgilangan nutqiy faoliyat sifatida talqin etilib, uning konseptual asoslari, metaforik modellari va kommunikativ strategiyalari tahlil qilinadi. Ishning nazariy asosini kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va gender lingvistikasi yo'nalishlaridagi qarashlar tashkil etadi. Tahlil jarayonida konseptual tahlil, nutqiy aktlar nazariyasi, xushmuomalalik nazariyasi hamda qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Vulf romanida ayol diskursi asosan ong oqimi va ichki monolog orqali ifodalanib, VAQT, XOTIRA, YOLG'IZLIK konseptlari markaziy o'rin egallaydi. Hoshimov asarida esa ayol ovozi polifonik hikoya tarkibida namoyon bo'lib, SABR, OILA, TAQDIR konseptlari hamda duo,*

olqish va evfemizmlarga tayangan bilvosita strategiyalar yetakchilik qiladi. Har ikki matnda ayol nutqi o'zlikni anglash va ijtimoiy rollar o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiruvchi muhim vosita ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, badiiy matn tahlili, gender lingvistikasi va tarjimashunoslik bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar *Ayol diskursi, lingvokognitiv tahlil, pragmatika, konsept, ong oqimi, nutqiy strategiya*

Лингвокогнитивные и прагматические особенности женской внутренней речи: сопоставительный анализ романов В. Вулф «Миссис Дэллоуэй» и У. Хашимова «Икки эшик ораси»

Суванова Хайринисо Бахриддин кизи
uzoqovaxayriniso95@gmail.com
Преподаватель кафедры теории и методики английского языка, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация *В статье рассматриваются лингвокогнитивные и прагматические особенности женского дискурса в английской и узбекской художественной прозе на материале романов Вирджинии Вулф «Миссис Дэллоуэй» и Уткира Хашимова «Икки эшик ораси» («Между двумя дверями»). Женский дискурс трактуется как гендерно маркированная речевая деятельность, в рамках которой анализируются его концептуальные основания, метафорические модели и коммуникативные стратегии. Теоретической базой исследования послужили положения когнитивной лингвистики, прагмалингвистики и гендерной лингвистики. В работе применены методы концептуального анализа, теории речевых актов, теории вежливости и сопоставительно-типологический метод. Результаты показывают, что в романе Вулф женский дискурс реализуется преимущественно через поток сознания и внутренний монолог, а центральное место занимают концепты ВРЕМЯ, ПАМЯТЬ, ОДИНОЧЕСТВО. В произведении Хашимова женский голос звучит в составе полифонического повествования, где доминируют концепты ТЕРПЕНИЕ, СЕМЬЯ, СУДЬБА и косвенные стратегии, опирающиеся на благопожелания, молитвенные формулы и эвфемизмы. Установлено, что в обоих текстах женская речь служит важным средством осмысления собственного «я» и противоречия между личностью и социальными ролями. Результаты могут использоваться в преподавании сопоставительного языкознания, анализа художественного текста, гендерной лингвистики и переводоведения.*

Ключевые слова *Женский дискурс, лингвокогнитивный анализ, прагматика, концепт, поток сознания, речевая стратегия*

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslikda til va tafakkur, til va jamiyat munosabatini yaxlit o‘rganishga intilish kuchaydi. Natijada matnni nafaqat struktur birliklar yig‘indisi, balki muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitda yuzaga keladigan diskurs sifatida tadqiq etish ustuvor yo‘nalishga aylandi. N. Ferklou ta’kidlaganidek, diskurs ijtimoiy amaliyotning bir shakli bo‘lib, u jamiyatdagi munosabatlarni ham aks ettiradi, ham qayta shakllantiradi (Fairclough, 1992). Shu nuqtai nazardan, badiiy matndagi ayol nutqi ham ijtimoiy rollar, qadriyatlar va dunyoqarash ifodachisi sifatida alohida tahlilni talab qiladi.

Gender lingvistikasining shakllanishida R. Lakoffning «Language and Woman’s Place» asari muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Olima ayollar nutqida ikkilanish ifodalari, so‘roq-tasdiq konstruksiyalari, kuchaytiruvchi va yumshatuvchi vositalarning nisbatan faol qo‘llanishini ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘ladi (Lakoff, 1975). Keyinchalik D. Tannen erkak va ayol muloqotini «maqom» va «yaqinlik» tamoyillariga tayangan ikki xil kommunikativ madaniyat sifatida talqin qildi (Tannen, 1990). J. Xolms ayollar nutqidagi xushmuomalalik vositalarini empirik materiallar asosida o‘rgandi (Holmes, 1995), J. Kouts esa ayollar muloqotida hamkorlik strategiyalari ustunligini ko‘rsatib berdi (Coates, 2004). Rus tilshunosligida A.V. Kirilina gender tushunchasini ijtimoiy-madaniy konstrukt sifatida asoslab, uning tilda namoyon bo‘lish mexanizmlarini tizimlashtirdi (Kirilina, 1999).

Kognitiv tilshunoslik esa til birliklarini inson ongidagi bilim tuzilmalari bilan bog‘liq holda o‘rganadi. J. Lakoff va M. Jonson konseptual metafora nazariyasida inson tafakkurining o‘zi metaforik tabiatga ega ekanini isbotlashga harakat qildi (Lakoff & Johnson, 1980). E.S. Kubryakova va hammualliflari konsept, freym, ssenariy kabi tushunchalarni izohlab, kognitiv tahlilning terminologik asosini yaratdilar (Kubryakova et al., 1996). V.A. Maslova lingvokognitiv yondashuvda til, madaniyat va ong uchligini tahlil markaziga qo‘yadi (Maslova, 2004). O‘zbek tilshunosligida Sh. Safarov kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini (Safarov, 2006), shuningdek, pragmalingvistikaning asosiy tamoyillarini (Safarov, 2008) batafsil yoritgan. M. Hakimov o‘zbek tilidagi matnlarning pragmatik talqiniga oid muhim kuzatishlarni ilgari surgan (Hakimov, 2013).

Shunga qaramay, ingliz va o‘zbek badiiy nasrida ayol diskursini lingvokognitiv va pragmatik jihatdan qiyosiy o‘rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, modernistik ingliz romani va o‘zbek realistik-psixologik romanidagi ayol ovozini bir xil metodologik asosda taqqoslash ilmiy jihatdan dolzarbdir. Ushbu maqolaning **maqsadi** V. Vulfning «Mrs Dalloway» (Woolf, 1925) va O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» (Hoshimov, 1986) romanlarida ayol diskursining konseptual asoslari va kommunikativ-pragmatik strategiyalarini aniqlash hamda ularni qiyosiy baholashdan iborat.

Material va Metodlar

Tadqiqot materiali sifatida ikki roman tanlandi. Birinchisi – ingliz modernizmining yorqin namunasi bo‘lgan V. Vulfning «Mrs Dalloway» romani bo‘lib, unda London jamiyatiga mansub ayol Klarissa Dellouyning bir kunlik hayoti ong oqimi usulida tasvirlanadi (Woolf, 1925). R. Xamfri ta’kidlaganidek, ong oqimi romanining asosiy vazifasi personaj ongining nutqqa qadar bo‘lgan qatlamlarini ochib berishdan iborat (Humphrey, 1954). Ikkinchisi – O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani bo‘lib, unda urush va urushdan keyingi yillardagi o‘zbek oilalari taqdiri bir necha hikoyachi tilidan, polifonik tarzda bayon qilinadi (Hoshimov, 1986).

Tanlov mezoni shundan iboratki, har ikki asarda ham ayol ichki dunyosi markaziy o‘rin tutadi, biroq u turli madaniy va poetik an’analar asosida ifodalanadi. V. Vulfning o‘zi ayolning ijodiy va ma’naviy mustaqilligi masalasini

nazariy jihatdan ham ko‘targanini inobatga olsak (Woolf, 1929), uning romani ayol diskursini o‘rganish uchun tabiiy manba hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: konseptual tahlil (Kubryakova et al., 1996; Maslova, 2004); konseptual metafora tahlili (Lakoff & Johnson, 1980); nutqiy aktlar nazariyasi (Austin, 1962; Searle, 1969); kooperatsiya tamoyili va implikaturalar tahlili (Grice, 1975); xushmuomalalik nazariyasi (Brown & Levinson, 1987); badiiy matnning stilistik tahlili (Leech & Short, 2007); hamda qiyosiy-tipologik metod. Tahlil birligi sifatida ayol personajlarning bevosita nutqi, ichki monologi va erkin o‘zlashtirma nutqi olindi.

Tahlil va Natijalar

1. **Ayol diskursining konseptual makoni.** «Mrs Dalloway» romanida ayol diskursining markazida VAQT konsepti turadi. Big Ben soatining zarblari asar davomida takrorlanib, har safar qahramonning ichki monologini to‘xtatadi va uni hozirgi lahzaga qaytaradi. Zarb sadosining havoda tarqalishi muallif tomonidan qo‘rg‘oshin halqalar eriyotgan tarzda tasvirlanadi: *“The leaden circles dissolved in the air”* (Woolf, 1925). Bu obraz VAQT – OG‘IR MODDA konseptual metaforasiga tayanadi va o‘tkinchilik hissini kuchaytiradi (Lakoff & Johnson, 1980).

XOTIRA konsepti esa Klarissaning yoshligi kechgan Burton qishlog‘i va Piter Uolsh bilan bog‘liq xotiralar orqali gavdalanadi. Romanning ilk sahifasidagi *“What a lark! What a plunge!”* undovlari hozirgi tongni o‘tmishdagi tong bilan bir zumda tutashtiradi. Bunda til birligi ikki vaqt qatlamini birlashtiruvchi kognitiv ko‘prik vazifasini bajaradi. YOLG‘IZLIK konsepti esa dengiz metaforasi orqali ifodalanadi: qahramon o‘zini dengizda, uzoqda va yolg‘iz his qiladi, hatto bir kun yashashning o‘zi ham juda xavfli ekanini o‘ylaydi (Woolf, 1925). Bu yerda HAYOT – XAVFLI DENGIZ SAFARI metaforik modeli faollashadi.

Ayol shaxsiyatining ijtimoiy rol bilan to‘qnashuvi, ayniqsa, ism kategoriyasida yaqqol ko‘rinadi. Klarissa o‘zini endi Klarissa emas, balki *“Mrs Richard Dalloway”* ekanini anglaydi (Woolf, 1925). Erning ismi orqali nomlanish ayolning shaxsiy identifikatsiyasi ijtimoiy maqom ichida «erib ketishini» ifodalovchi lingvokognitiv belgi hisoblanadi. Bu holat ayolning ijodiy va ma’naviy mustaqilligi haqidagi muallif qarashlari bilan uyg‘un (Woolf, 1929).

«Ikki eshik orasi» romanida esa konseptual makon boshqacha tashkil topgan. Asar sarlavhasining o‘zi HAYOT – IKKI ESHIK ORASIDAGI YO‘L metaforasini ilgari suradi: inson tug‘ilish va o‘lim «eshiklari» oralig‘ida yashaydi (Hoshimov, 1986). Ayol personajlar nutqida SABR, OILA va TAQDIR konseptlari yetakchilik qiladi. Urush yillaridagi mahrumlik, yaqinlarni kutish va yo‘qotish sharoitida ayol ovozi shaxsiy kechinmani oila va jamoa taqdiri bilan bog‘lab talqin qiladi. Sh. Safarov ta’kidlaganidek, konsept milliy madaniyatning kognitiv izi sifatida til egasining qadriyatlar tizimini aks ettiradi (Safarov, 2006). Shu bois o‘zbek ayoli diskursidagi SABR konsepti individual his-tuyg‘udan ko‘ra ko‘proq jamoaviy-axloqiy me’yor sifatida namoyon bo‘ladi.

2. **Ayol diskursining pragmatik strategiyalari.** Vulf romanida ayol nutqining eng muhim pragmatik xususiyati – aytilgan va aytilmagan ma’no o‘rtasidagi farqdir. Piter Uolsh Klarissadan *“Are you happy, Clarissa?”* deb so‘raganda, savol javobsiz qoladi: suhbat qizi Elizabetning kirib kelishi bilan uziladi va Klarissa ketayotgan mehmonning ortidan ziyofatni eslatib qoladi (Woolf, 1925). Grays nazariyasi nuqtai nazaridan bu – munosabat maksimasining ataylab buzilishi bo‘lib, undan «bu mavzuda gaplashishni istamayman» degan implikatura kelib chiqadi (Grice, 1975). Ziyofatga taklif shaklidagi direktiv akt esa fatik vazifani bajarib, ijtimoiy yuzni saqlashga xizmat

qiladi (Searle, 1969; Brown & Levinson, 1987).

Klarissaning tashqi nutqi qisqa, xushmuomala va ko'pincha ikkilanish belgilariga ega bo'lsa, ichki monologi keng, emotsional va baholovchi birliklarga boy. Bu nomuvofiqlik R. Lakoff qayd etgan «ayollar tili» belgilarining badiiy matndagi o'ziga xos ifodasidir (Lakoff, 1975). J. Lich va M. Short ta'riflaganidek, erkin o'zlashtirma nutq muallif va personaj ovozlarini qorishtirib, o'quvchini qahramon ongiga bevosita olib kiradi (Leech & Short, 2007).

«Ikki eshik orasi» romanida ayol diskursi ko'proq bilvosita strategiyalar orqali reallashadi. Ayol personajlar nutqida duo va olqish formulalari, «bolam», «jon bolam» kabi erkalovchi murojaat shakllari, o'lim va kasallik haqida so'zlashda qo'llanadigan evfemizmlar muhim pragmatik vazifa bajaradi. Bunday vositalar Braun va Levinson nazariyasidagi salbiy va ijobiy xushmuomalalik strategiyalariga mos keladi: so'zlovchi suhbatdoshning «yuzi»ni asraydi, iltimos yoki tanbehni yumshatadi (Brown & Levinson, 1987). M. Hakimov o'zbek nutqida ma'noning ko'p hollarda kontekst va milliy-madaniy bilimlar orqali anglashilishini ta'kidlaydi (Hakimov, 2013). Shu jihatdan, o'zbek ayoli nutqidagi duo nafaqat ekspressiv akt, balki maslahat, ogohlantirish yoki iltimosni bilvosita ifodalovchi ko'p qatlamli nutqiy harakat sifatida namoyon bo'ladi (Austin, 1962; Safarov, 2008).

3. **Qiyosiy natijalar.** Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

Parametr	«Mrs Dalloway»	«Ikki eshik orasi»
Hikoya shakli	Ong oqimi, erkin o'zlashtirma nutq	Polifonik, bir necha hikoyachi
Yetakchi konseptlar	VAQT, XOTIRA, YOLG'IZLIK	SABR, OILA, TAQDIR
Asosiy metaforik model	HAYOT – XAVFLI DENGIZ SAFARI	HAYOT – IKKI ESHIK ORASIDAGI YO'L
Ustun pragmatik strategiya	Implikatura, ichki va tashqi nutq tafovuti	Duo, olqish, evfemizm, bilvosita iltimos
Ayol "men"ining talqini	Individual o'zlikni izlash	Oila va jamoa bilan uyg'un "men"

1-jadval. *Ikki romanda ayol diskursining lingvokognitiv va pragmatik parametrlari*

Muhokama

Olingan natijalar ayol diskursining universal va milliy-xos jihatlarini ajratish imkonini beradi. Universal jihat shundaki, har ikki romanda ham ayol nutqi o'zlikni anglash va ijtimoiy rol o'rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu kuzatish D. Tannenning ayollar muloqotida «yaqinlik» va munosabatlarni saqlash ustuvorligi haqidagi qarashlariga mos keladi (Tannen, 1990). Shuningdek, J. Kouts va J. Xolms qayd etgan hamkorlikka yo'naltirilgan, yumshatuvchi strategiyalar ikki matnda ham kuzatiladi (Coates, 2004; Holmes, 1995).

Milliy-xos jihatlar esa ayol "men"ining konseptual tuzilishida yaqqol ko'rinadi. Vulf romanida ayol o'zini jamiyatdan ajralgan, ichki erkinlikka intiluvchi shaxs sifatida anglaydi. Hoshimov romanida esa ayol shaxsiyati oila va jamoa bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning nutqi jamoaviy xotira va axloqiy me'yorlarni tashiydi. A.V. Kirilina ta'kidlaganidek, gender madaniy konstrukt bo'lgani uchun uning tildagi ifodasi har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakl oladi (Kirilina, 1999). Pragmatik jihatdan ingliz

ayol diskursida implikatura va sukut, o‘zbek ayol diskursida esa an’anaviy nutqiy formulalar orqali bilvositalik ta’minlanadi. Demak, bilvositalik ikki madaniyatda ham mavjud, biroq uning til vositalari va kognitiv asoslari farqlanadi (Fairclough, 1992; Safarov, 2008).

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, «Mrs Dalloway» romanida ayol diskursi ong oqimi va erkin o‘zlashtirma nutq orqali ifodalanib, VAQT, XOTIRA va YOLG‘IZLIK konseptlari atrofida shakllanadi. Ikkinchidan, «Ikki eshik orasi» romanida ayol ovozi polifonik hikoya tarkibida yangraydi va SABR, OILA, TAQDIR konseptlariga tayanadi. Uchinchidan, ingliz matnida implikatura hamda ichki va tashqi nutq tafovuti, o‘zbek matnida esa duo, olqish va evfemizmlarga asoslangan bilvosita strategiyalar ustunlik qiladi. To‘rtinchidan, ikki romandagi ayol diskursi gender universaliyalari bilan birga milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ham namoyon etadi.

Tadqiqotni kelgusida ayol diskursining tarjimada saqlanishi, ya’ni «Mrs Dalloway»ning o‘zbekcha va «Ikki eshik orasi»ning inglizcha tarjimalarida konseptual va pragmatik ma’nolarning qay darajada uzatilishini o‘rganish orqali davom ettirish maqsadga muvofiq.

References:

1. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Clarendon Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
3. Coates, J. (2004). *Women, men and language* (3rd ed.). Pearson Longman.
4. Fairclough, N. (1992). *Discourse and social change*. Polity Press.
5. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts*. 41–58. Academic Press.
6. Hakimov, M. (2013). *O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari*. Akademnashr.
7. Holmes, J. (1995). *Women, men and politeness*. Longman.
8. Hoshimov, O‘. (1986). *Ikki eshik orasi*. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
9. Humphrey, R. (1954). *Stream of consciousness in the modern novel*. University of California Press.
10. Kirilina, A. V. (1999). *Gender: lingvisticheskie aspekty* [Gender: Linguistic aspects]. Institut sotsiologii RAN.
11. Kubryakova, E. S., Demyankov, V. Z., Pankrats, Yu. G., & Luzina, L. G. (1996). *Kratkiy slovar' kognitivnykh terminov* [A concise dictionary of cognitive terms]. Filologicheskiy fakul’tet MGU.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
13. Lakoff, R. (1975). *Language and woman’s place*. Harper & Row.
14. Leech, G., & Short, M. (2007). *Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose* (2nd ed.). Pearson Longman.
15. Maslova, V. A. (2004). *Kognitivnaya lingvistika* [Cognitive linguistics]. TetraSistems.
16. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Sangzor.
17. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
18. Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.

19. Tannen, D. (1990). *You just don't understand: Women and men in conversation*. William Morrow.
20. Woolf, V. (1925). *Mrs Dalloway*. Hogarth Press.
21. Woolf, V. (1929). *A room of one's own*. Hogarth Press.